

*O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI
MUQIMIY NOMIDAGI QO'QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI*

FILOLOGIYA FAKULTETI

O'zbek adabiyoti kafedrası

REFERATI

Mavzu: Akademik litsey va kasb-hunar
kollejlarida nasriy asarlarni o'rganish

TALABA RAIMOVA UMIDA

Qo'qon - 2011 yil

REJA:

1. Dramatik asarlarda qahramon ruhiyatini o'rganishning amaliy masalalari
2. Dramatik asarlarda qahramonlar ruhiyatini o'quvchilarga diogloglar, poliloglar va muallifning qahramonlarga bergan tavsiflari orqali o'rganish
3. Dramatik asarlarda qahramonlar ruhiyatini o'quvchilarga monologlar orqali ochib berish
4. Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....46-47

Dramatik asarlarda qahramon ruhiyatini o'rganishning amaliy masalalari.

Maqsud SHayxzoda o'zbek adabiyotida she'rlar, dostonlar, ilmiy asarlar ijodkori bo'lishi bilan birga dramaturg sifatida ham shuhrat topgan. Ikkinchi jahon urushi yillarida "Jaloliddin Manguberdi" asarini, keyinchalik "Mirzo Ulug'bek" tragediasini yaratgan. "Jaloliddin Manguberdi" dramasida Xorazmning CHingizhon tomonidan zabt etilishi, Jaloliddin Manguberdi kishilarning unga qarshi, yurt ozodligi uchun olib borgan kurashi tasvirlangan.

Maqsud SHayxzoda qator dramatik asarlarning tarjimoni sifatida ham ko'pchilikka tanish. A.S.Pushkinning "Motsert va sal'eri" she'riy dramasi, V.SHEkspirning "Hamlet", "Romeo va Juletta" tragedialari SHayhzoda tomonidan o'zbek tiliga tarjima qilingan.

O'quvchi kirish mashg'ulotida Sh. Boshbekovning "Temir xotin" asari komediya janriga, K.Yashinning "Nurxon" asari drama janriga mansubligini aytadi. M. SHayxzodaning "Mirzo Ulug'bek" asari esa "Hamlet", "Zaharli hayot..." asarlari kabi tragedia janriga mansubdir.

Mashg'ulot davomida o'qituvchi Ulug'bek haqida qisqacha ma'lumot beradi. Ulug'bekning asl ismi Muhammad bo'lib, tarixiy asarlarda Muhammad Tarag'ay deb yuritiladi. Amir Tarag'ay Temurning otasining ismi, bo'lib Ulug'bek Temurnig nabirasi bo'lgani uchun nomiga Tarag'ay qo'shib aytilgan. Ulug'bek esa Amir Temur tomonidan nabirasiga berilgan keyingi nomdir. Ulug'bek saroyga olimlarni yig'ib, ilm-fan taraqqiyoti uchun kurashdi. Madrasalar qurdirdi, bog'lar barpo qildi. Temur zamonida boshlangan Bibixonim, Go'ri Amir singari binolarini qurib bitkazdi.

Ulug'bek Ali Qushchi, Miram CHalabiy singari shogirdlari bilan rasadxona qurib, astranomiya fani bilan shug'ullanadi. U 1018 yulduzning holatini o'rganib,

“Zichi Ko’ragoniy” nomli astronomiya jadvalini tuzdi. Uning bu asari jahon astronomiya ilmidagi eng mukammal asarlardan biridir.

Ulug’bekning ana shunday taraqqiyparvar ishlari reaksiya guruhlari qarshiligiga uchradi. Ulug’bek o’z o’g’li Abdullatifning buyrug’iga binoan o’ldirildi.

Ulug’bek nomi Alisher Navoiy, Bobur singari yozuvchilar asarlarida katta hurmat bilan tilga olinadi. Akademik Bartold, Qori Niyoziy singari olimlar Ulug’bek faoliyati haqida ilmiy asarlar yaratdilar. S.Barodinning “Samarqand osmonida yulduzlar” romani M. SHayhzodaning “Mirzo Ulug’bek” tragedyasi, O.YOqubovning “Ulug’bek xazinası” romanida Ulug’bekning marifatparvarligi aks ettirilgan.

Ulug’bek haqida juda ko’p she’rlar ham yaratilgan. O’qituvchi ulardan eng muhimlarini aytib o’tadi. Erkin Vohidovning “O’zbekim” nomli qasidasida shunday deyilgan misralar bor:

Tuzdi-yu Mirzo Ulug’bek

Ko’ragoniy jadvalin,

Sirli osmon tog’iga ilk-

Qo’ydi narvon o’zbekim.

Abdulla Oripovning “O’zbekiston” sherida esa:

Bobolardan so’z ketsa zinhor

Bir kalom bor gap avvalida.

Osmon ilmi tug’ilgan ilk bor

Ko’ragoniy jadvallarida

Qotil qo’li qilich soldi mast

Quyosh bo’lib uchdi tilla bosh

Do’stlar ko’kda yulduzlar emas

U Ulug’bek ko’zidagi yosh.

Yerda qolgan, o tanim manim,

O’zbekiston-Vatanim manim, -

misralarini o'qish mumkin.

“Mirzo Ulug’bek” tragediyasi Hamza teatrida muvoffaqiyatli o’ynaldi. Ulug’bek rolini mohir aktiyor SHukur Tursunov yaratdi. Mazkur asar asosida “Ulug’bek yulduzi” badiiy filmi yaratilib, kinoda Ulug’bek rolini SH. Burhonov ijro etdi.

“Mirzo Ulug’bek” tragediyasi L’vov shahri teatri sahnasida ham o’ynaldi.

Maqsud SHayhzoda “Mirzo Ulug’bek” pyesasi bilan o’zbek adabiyotida tragediya janrining yuksak namunasini yaratdi. Ulug’bek harakterini va u yashagan davr sharoyitini dramatik harakatga boy mazmun vositasida ko’rsatib berdi.

O’qituvchi kirish mashg’uloti so’ngida navbatdagi darslarda matn ustida ishlashni e’lon qilib, tragediyani uyda o’qib kelishini topshiradi. Keyin, doskaga yozilgan so’zlarni o’quvchilar lug’at daftariga yozib olishlari kerakligi aytiladi. CHunki tarixiy mavzuga oid asarlarni lug’atsiz o’rganib bo’lmaydi.

M. SHayhzodaning “Mirzo Ulug’bek” tragediyasini o’rganish uchun lug’at.

Movaraunnahr – ikki daryo orasi.

Muhtasib – shariatga hilof ishlarni tekshiruvchi diniy amaldor.

Navkar – askar.

CHin – Xitoy.

Farang – Fransiya.

Aso – hasa.

Voasofo – hayhat.

Zeru – zabar – bu yerda ostin – ustun ma’nosida.

Majohid – din uchun kurashuvchi.

Ofoq – ufq, dunyo.

Olat – asbob.

Pitlimos – qadimgi yunon olimi Ptolomey.

Bashar – dunyo.

Xusuf – oy tutilishi.

Lobid – muqarrar.

Poygirnoma – xat.
Al'on – hozir.
YOg'I – dushman.
Raha – joy, hudud.
Avomun nos – oddiy xalq.
Urfon – ilm.
Badaviy – sahroyiy.
Istifoda – foydalanish.
Mankuha – nikohli xotin.
Sabiy – yosh bola.
Zol – ziyrak.
Orif – ma'rifatli.
Taadd – zulm qilish.
Zillat – xo'rlik.
Minba'd – bundan keyin.
Bilkulliya – tamomila.
Tiynat – xulq.
Iqomat – istiqomat.
Xabis – past kabi.

Matn ustidan ish boshlashdan avval o'qituvchi bu asargacha o'rgangan dramalar matni yuzasidan olib borilgan ishlarni esga soladi. Darsning boshlanishida Xamza teatri aktiyorlari ijrosidagi asar fadiomantajidan parcha eshitish foyda beradi.

SHudan so'ng 2-soatda, 2- ko'rinish rollarga bo'lib o'qiladi. Ulug'bek rolini sinfdagi eng qobiliyatli o'quvchiga tavsiya etish ma'quldur. O'qituvchi matn ustida ishlash jarayonida asarda o'quvchilar tushunishi qiyin bo'lgan so'zlarni lug'at daftari yordamida o'quvchilarning o'zlaridan sharxlab berishni talab qiladi.

O'qituvchining matn ustida ishlash jarayonida kompozitsia elementlariga o'quvchilar diqqati tortishi keyingi darslarda o'quvchilarning asardagi badiiy hususiyatlarni yaxshi o'zlashtirishiga yo'l ochadi. Asardagi parda, ko'rinish,

remarka, replika, monolog, dialog, polilog singari kompozitsiya elementlari o'qish jarayonida tushuntirib boriladi.

Dialog – ikki kishi orasida bo'lib o'tadigan suhbat ekani aytiladi. Agar suhbatdoshlar soni ikkitadan ortsa, ular o'rtasidagi suhbat polilog deb ataladi.

Dramatik asarda muallifning personajlariga izoh berishi, ular hatti - harakatini o'z so'zlari orqali sharhlashi remarka deyiladi.

Dramatik asardagi personajning boshqa personaj so'ziga qisqa javobi replika deb yuritiladi. Personaj so'zining oxirgi so'zi ham replika deyiladiki bu p'esada keyingi gapiradigan personaj so'z boshlashiga yo'l ochishdir.

O'qituvchi tushuntirib bo'lgach, asarni o'qish jarayonida monolog, dialog, polilog, remarka, replika, kabi kompozitsia elementlari so'rashni, o'quvchilar asardan topa olishlarini aytadi.

Keyin o'qituvchi asardagi qahramonlarga alohida to'htaladi. O'quvchilarga to'qima va tarihiy obrazlarni tushuntirib beradi.

Muallifning g'oyaviy niyati asardagi tarihiy va to'qima obrazlar vositasida amalga oshirishini aytib o'tdi.

Asarda, Ulug'bek, Abdullatif, Gavharshobegim, Ali Qushchi, Cakkokiy, Burxoniddin, Ho'ja Ahror, Said Obid, Abbos, Abdurazzoq Samarqandiy, Qozi Miskin obrazlari tarihiy obrazlar ekanligini tushuntirib beradi.

Tragediyadagi Firuza, Piri Zindoniy, Bobo Kayfiy, Ota Murod, Berdiyor, Ko'rqalandar obrazlari to'qima obraz ekanligini aytiladi.

O'quvchilar asar bilan tanishib bo'lgach, asardan o'quvchi o'ziga yoqqan biror monologni yodlash uyga vazifa qilib topshiradilar.

Keyingi darsda esa, asardagi har bir qahramonni alohida-alohida o'rganib, qahramonlarga tavsif berib, qahramonlarning ruhiyati, ichki olami, dunyoqarashlarini o'rganish aytiladi.

2. Dramatik asarlarda qahramonlar ruhiyatini o'quvchilarga diogloglar, monologlar, poliloglar va muallifning qahramonlarga bergan tavsiflari orqali o'rgatish.

O'qituvchi tragediyaga qahramonlarning dunyo qarashlarini, ruhiyatini, ularning dialoglari orqali aniqlashini aytadi. O'quvchilar o'zlari xohlab dialoglarni rolga bo'lib o'qishadi va dialogdan kelib chiqib, qahramonlarga tavsif beradi.

4 – parda

(2 – ko'rinish)

Zindon. Alohida xujra, eshik ochilgach, mash'alaning olovi xujrani yoritadi¹.

Bir chorpolda odam yotgani ko'rinadi.

Ulug'bek.

- Men bir o'zim kirib ko'ray, u qanday inson!

Berdiyor Mash'alni hujraga tikib qaytadi. Boshqa odamlar hujraga kirmay qaytadilar. Ulug'bek hujraga kirib ketadi. Bir ozdan so'ng chorpoyada yotgan odam, mash'alning yorug'iga bo'lsa kerak, uyg'onib turadi. Bu haddan tashqari kekxa bir chol. Hamma yog'ini soch – soqol bosib ketgan bandi.

Piri Zindoniy.

Kim bo'lursiz? Nima kerak bu g'amxonada? Meni yana aynitmoqchi bo'lasizmi, ha! Qilmishimga men nadomad chekmayman, biling! Temurbekka aytganimdan bo'lak gapim yo'q.

Ulug'bek.

Men Ulug'bek Mirzodurman, SHohruhning o'g'li, Sohibqiron nabirasi. Zamon sultoni sening barcha sarguzashting bilmoq istayman.

Piri Zindoniy.

Nega darkor sarguzashtlar, sarguzashtlarim nima!

Men ularni aytgan bilan yoridimi kun?

YO la'nati zindon qulab kerakmi erklik?

YO qaytadan men yosharib jo'ralar bilan –

Jumalikda yallaxonlik qilamanmi – a?

¹ Umumiy o'rta maktablarning 8-sinf uchun "Adabiyot" darslik. T. 2010 yil/ 178-195-bet. Majmua.

Podshoga insonlarni o'ldirish oson!

Ammo, qani, ular kimni tiriltirgan? Hayhot!

Ulug'bek

YO'q. Bularning CHorasi yo'q. Bilmoq istayman: Sen kim?

Menmi? Hasan degan bitta chilangar.

Bu zindonga tushganimga necha yil bo'ldi,

Buni o'zim bilmayman, eslayolmayman.

Ko'p chidamli narsa ekan, deyman odamzot...

Hech bir mahluq tuzalmasdi shuncha jabirga.

Bu do'zaxga tashlanganda, meni bobongiz,

Siz dunyodan behabar bir go'dak bo'lgansiz.

Ko'p taajub tili lafzni unutmaganim.

CHunki bir chog' o'tib ketgan hodisalarni.

O'z – o'zimga mashq qilaman o'zim yodaki

Ayting, hijrildan necha yil o'tgan.

Ulug'bek

Sakkiz yuzu ellik ikki tarihiy – hijriy.

Piri Zindoniy.

Voh – voh, demak ellik yildir men bunda bandi...

Ammo ko'rib turibsizki, o'lgan emasman.

CHunki yig'lab ko'z yoshini to'kmadim sira.

YO'q, shahriyor, men o'lmoqchi emasman hali².

Tragediyada Ulug'bek va Piri Zindoniy obrazlaridagi ruhiyat, ularning dialoglarida namoyon bo'ladi. Asosan, zindon manzarasi Ulug'bek xarakteridagi odillik, shoh Ulug'bek qoralanib, olim Ulug'bek ulug'lanishini ko'rsatishga, qaratilgan. Bu xususiyatlar bandilarni ozod qilishga va Piri Zindoniy munosabatlarida yuzaga chiqadi. Afsuski, Piri Zindoniy 50 yil hujrada yotgan. U

² Umumiy o'rta maktablarning 8-sinf uchun "Adabiyot" darslik. T. 2010 yil/ 178-195-bet. Majmua

bilan hech kim muloqotda bo'lmagan. Ulug'bek olimlikka berilib, shoxlikni fojiaga olib keldi.

Lekin, dialogda Ulug'bek Piri Zindoniya achinishi, u bilan ochiq muloqot qilishi, unut zindonga tushishi sababini surishtirishi va zindonda unga erkinlik yaratishi, Ulug'bek ruhiyatida hamisha narzidan ustun turuvchi halollik, poklik, vijdon tozaligini ko'rsatish turadi.

Piri Zindoniya ruhiyatida esa o'ziga xos mag'rurligi, mardlikni ko'rish mumkin. U zindonda yotib, oradan qancha vaqt o'tganini bilmaydi, kecha – kunduzni ko'rmaydi. Oradan 50 yil o'tgach esa Ulug'bek bilan uchrashadi. Qancha vaqt o'tganini so'raydi, shuncha vaqt o'tishiga qaramay, u o'zini, o'zligini, shoxga bo'lgan nafratini unutmaganini ko'ramiz. Lekin shunda ham u o'limdan qo'rqmaydi, biriq marta nolib yig'lamaydi. U hamisha shoxlarni bir hil zulumkor deb o'ylaydi. Uning ruhiyatida hamisha narsadan ustun shohlarga nafrat yotadi. Dialogda, uning qalbi chekkan ozor, ruhiyatidagi azob ochib berilgan.

O'quvchilarga qahramonlar ruhiyatini ochib berishga, o'qituvchi har bir dialogda ularga savollar bilan murojaat qilib turishi lozim. SHundagina ular tez bahs – munozaraga kirishib ketadi. Bir o'quvchi Ulug'bekni shoh sifatida qarasa, ikkinchi o'quvchi esa uning fikriga qarshi chiqib yaxshi xislatlarini ochishga intiladi. SHu bilan qahramonlarning fazilatlari o'quvchiga ta'sir qilib boradi.

Asar bilan tanishish davomida o'quvchilarning diqqatini ko'proq Ulug'bekning olimlik bo'yicha qilgan ishlari tortadi: .

Ali Qushchi.

(qog'ozga qarab o'ylanib)

Davlatpanoh, shu nuqtada soniyalarning

Tanosibi Pityumlidan andak boshqacha...

Demak bunda yanglishibdi yunon hakimi.

Ulug'bek.

Bizning hisob ancha to'g'ri, ancha to'g'riroq.

To'g'riroq biroq, hali mukammal emas.

Hali ro'zi mahshargacha basher avlodi.

Kuzatar ham, tuzatar ham olam kitobin.

Sen shu joyni to'g'rilab qo'y.

Ali Qushchi

Janob shahriyor!

Oyga tikilib qarayotgan Ulug'bek uni eshitmaydi.

A'lohzrat!

Ulug'bek.

(birdan uyg'onganday bo'lib)

“A'lohzrat” A'lohzrat kim?

Ali, meni sen shu erda “ustoz” deyaver!

Bilasanmi, hayolimni nima band etgan?

Ko'pdan beri andishani bor husuf haqida

Senga ma'lum: “Husuf” deymiz oy tutulishin.

Bu – ku yorning oyga tushgan soyasi, holos.

Mana husuf qachon, qay kun, necha daqiqa.

Bo'lishlig'im topmoqlikning iloji yo'qmi?

Bu muommo o'ylantirar meni tinchitmay.

Bu jumboqni echa olsam, oh echa olsak,

O'rin qolmas vahimaga ham hurofatga

O'ylashimcha bunda bordur riyoziy qonun.

CHunki, kobit muayyan sababi bo'lmay

Hech boqida hech voqeya koinot ro'y bermas ahir!

Nima desan? Usuli shu...

- Bu dialogda, Ulug'bek ruhiyatining o'ziga tortadigan qirrasi, uning buyuk aql egasi, ilm va iste'dod sohibi ekanini ko'rsatib turibdi. Ulug'bek hukumdorligi uchun emas, yulduzlar bilan til topishganidan, o'z qo'li bilan rasatxona yaratib, bir ming ikki yulduzning joylashishi o'rniki belgilab chiqqanligi, o'nlab fidoyi shogirtlar tayyorlaganidan ko'ksi faxrga to'ldi. U qilich kuchiga emas, ilm

ma'rifat kuchiga, dunyoni qora kuch emas go'zallik o'zgartirishi mumkinligiga ishonadi.

Dialogda Ulug'bekning go'zal maqsadini ko'ramiz. U o'zidan keyingi avlodga boy ma'naviy hazina qoldirishni ilm yo'lini ochishni orzu qilardi. Dialog orqali esa uning shu yo'lda fidoyi va tinimsiz izlanganining guvohi bo'lasiz.

Uning shogirti Ali Qushchi yunon olimi Ptolomey tuzgan jadvaldan, Ulug'bek tuzgan jadvalda farq bor ekanligini aytadi, shunda Ulug'bek, o'ziga ishonib Pitlimos yangilashganini aytadi. Bu bilan Ulug'bekning ilmga bo'lgan yuksak qiziqishi va yuksak aql egasi ekanligi ko'rinadi.

Ali Qushchi Ulug'bekka murojat qilganida u eshitmaydi, chunki uning butun hayoli oyga tikilib, ilm sirlarini ochishda bo'ladi.

Yana, A'lohzrat, deb murojaat qilganida, birdan uyg'onganday bo'lib "Aqlini, sen shu erda "ustoz" deyaver!" – deydi. Uniki bu so'zlari orqali esa, shunga amin bo'lamizki, Ulu'gbek o'zining hukumdor bo'lishini emas, ustoz bo'lishni xohlagan.

Oy tutilishini va uning sabablarini o'rganayotgan Ulug'bek, shogirdiga qarata shunday deydi: "Bu muommo o'ylantirar meni tinchitmaydi." "Bu muommoni o'ylab yecha olsam, oh, yecha olsak."

Uning bu fikrlari orqali ruhiyatida kechayotgan nozik tuyg'ularini his qilish qiyin emas.

O'qituvchi bu dialogni tahlil qilishda, ko'proq o'quvchilarning o'ziga qo'yib bersa, ularning o'zlarini ko'proq fikrlatsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Yangi pedagogik texnologiyadan foydalanib darsni tashkil qilsa, ularning fikrlarini singdirmasdan, aksincha erkin fikrlatsa ko'zlangan maqsadga erishiladi.

O'qituvchi barchada markaziy va bosh qahramon Ulug'bekning shu dialogdagi qalb kechinmalarini o'rtaqa savol qilib qo'yadi. Va O'quvchilarni ikki guruhga ajratib, ya'ni bir guruhni "oqlovchilar", ikkinchi guruhni "qorolovchilar" deb nomlab, "oqlovchilar" qahramonlarning ijobiy fazilatlarini ochishga harakat qilsa, "qorolovchilar" esa qahramonlarning kamchiliklarini topishni o'rtaqa tashlaydi. Dars munozaraga aylanadi, ham o'quvchilarning dunyoqarashi

shakllanadi. Munozaradan so'ng o'quvchilar fikrlarini jamlab, xulosa qilinadi. Va shu asosuda o'quvchilar qahramonlarning ham insoniy, ham salbiy tomonlarini, ularning ruhiyatidagi kechinmalarini to'la idrok qiladilar. SHu yo'l bilan o'qituvchi samarali yutuqqa erishadi, ham qahramonlarning ruhiy alomini o'quvchiga etkaza oladi, ham o'quvchini ruhiyatini, savodxonligini, nutqini shakllantiradi. Darsda dialogni yaxshi o'qigan o'quvchilarni rag'batlantiradi.

3. Dramatik asarlarda qahramonlar ruhiyatini o'quvchilarga monologlar orqali ochib berish usullari

Buning uchun o'qituvchi oldingi darsda o'quvchilarni ogohlantirib, keyingi darsga har bir o'quvchiga bittadan monolog yodlab, yodlagan monologini himoya qila oladigan bo'lishi kerakligini uyga vazifa qilib topshiradi. O'quvchilar monolog yodlash bilan birga, qahramon ichki dunyosini, uning qalb kechinmalarini sinchiklab o'rganadi.

Masalan: Birinchi parda ikkinchi ko'rinishdagi Ulug'bek manologi:

Go'daklikdan yulduzlarga bo'ldim oshufta.
Bilmak, butun koinotga sirdosh bo'lmoqlik,
Kitoblarning lol tiliga quloq solmoqlik,
Haqiqatgo'y donolardan ta'lim olmoqlik
Menga orom bo'lmas edi o'sha chog'larda.
Esimdadur, bir kun ustoz qozizodaning
Qo'llaridan o'pganimni ko'rgandi bobom,
Menga tanbih berib: - og'lim, degan edi u,
Erkak qo'lin, Aflotun ham bo'lsa u kishi,
SHahzodalar o'pmoqligi butkul nojo'ya,
Dunyo sening oyog'ingni o'pmog'i lozim!
Bu – qalbmida chechaklarni kurtaklariga.
Kuz cho'lidan esib kelgan ilk shamol bo'ldi.
Qirq yil bo'ldi koinotning kitobin o'qib.
Ma'rifatning dargohiga qo'ydim ihlosim.

Og'ir bo'ldi qismat menga ortgan vazifa.
Men sultonlar o'rtasida bo'ldim donishmand,
Donishmandlar tepasida sulton sanalgim.
Ma'rifatni hukumatga qilib rahnomo.
Bu o'lkaning yerida ham yulduzlar yoqdim.
Insonlarga aytib turdim: boqqin samoga
Qancha toza va musoffo, farohbahsh, zebo.
Ey, odamzod, ibrat olgin yulduzlar sen
Hayrixohlik va balandlik hislatlarida.
SHaltoqlarda og'namagin ko'targil, yuksak,
So'qir baxtdan ko'rar ko'zim baxsizlik afzal.
Ey, saodat yaritilmas buyruqlar bilan,
Zehnlariga nur urug'in sepdim muttasil.
Katta hosil kutmoqdaman, nuroniy hosil.³

Ulug'bek Ilmning qudratiga nechog'lik yuqori baho berganligini uning shu manoligi orqali ko'rinib turadi. Ulug'bek tomirida oqqan temur qoni, hukmdorlik burchi bilan qalbidagi insongarchilik va ma'rifat tinimsiz shiddatli to'qnashuvda yashaydi. Bu ichki kurash unga azob beradi, yurishni qoq ikkiga bo'ladi. Umr bo'yi ana shu ikki qutubni kelishtirgan, ularni bir – biriga hizmat qildiraman deb harakat qildi.

Bu monologni yodlab kelgan o'quvchi Ulug'bekdagi xususiyatlarni sanab, ularni tushuntirib beradi. Uning xarakteridagi asosiy xususiyatlar: ilm bilan shug'ullanishi, hurofot va bid'atga qarshi kurashishni, adabiyot va san'atga mehr bilan qarash, yoshlar sevgisiga rahnomolik taxt shuhratini saqlashga intilishi, qo'zg'alonlarni beshafqat bostirish va boshqalar.

Ulug'bekning yulduzlar olami bilan qiziqishi, rasadxona qurishi, astronomiya faniga oid maxsus ilmiy asar yozilishini, uning faolligining burungi davrlariga bog'lash mumkun.

³ O'sh asar. 12-13 b

Monolog orqali Ulug'bek qalbining, ruhiyatining, nechog'lik ekanini xis qilish qiyin emas. Ulug'bek hech qachon o'z xohishi bilan hukmdorlikni tanlamagan. Hukmdorman deb kerilmagan. Ilm o'rganishni, ma'rifatli bo'lishni shohlikdan ustun qo'ygan. Uning ruhiyatida, faqat insonlarga ezgulik ulashuvchi, yoshlarga ilm berish, qolaversa ilm bilan shug'ullanib, ochilmagan ilm sehlrlarini ochish kabi ezgu niyatlari hayotida uni qiynoqqa soladi, shu maqsadlariga erishishi uchun esa tinimsiz izlanadi. Xatto, ustoz Qozizodaning qo'lini o'pganida, uni ko'rgan bobosi shahzodalarga bunday qilishi yaramasligini aytadi. Kerak bo'lsa dunyo sening oyog'ingdan o'psin deydi. Lekin, Ulug'bek ilm yolida gado bolishga ham tayyor turadi. Uning bu fazilatlari esa, Ulug'bekning ruhan go'zal inson ekanligini ko'rsatib turadi. U davlatni va ma'rifat orqali boshqarishni ilgari suradi. Biz bundan Ulug'bekning adolatli hukmdor bo'lganni ko'ramiz.

Bu manologni yodlagan o'quvchi shu kabi fikrlarni bildiradi. Keyin tinglovchi o'quvchilarga monologidan savollar beriladi. Dars bahs- munozaraga aylanadi. Ulug'bek ruhiyatining nozik qirralari ochiladi.

Boshqa bir o'quvchi Abdulla monologini yoddan aytib beradi;

Nega, mega yuraklarni qoplar iztirob
Uni ko'rsam yo eshitsam, yoki o'ylasam
Axir u –ku, bu bevafo diyorga emas
Mag'ribdan to Xonbaliqqa, Rimdan Hindgacha
Misrdan to Tabrizgacha eng muhtaram zot
Ammo men-chi , unga faqatxusumatim bor .
Ko'rolmayman, ko'rolmayman uni vassalom
O'g'lining o'z otasiga osiy bo'lishi....
Uh... Bu yolg'on birr jinoyat, dahshatli gunoh
Ammo netay? Go'yo uning har tirik kuni
Meni birr yil qaritadi, go'rga eltadi .
Bu g'arazning boisi ne? Ko'p mushkul saboq .
SHunday ekan, yaxshilikni unitish oson.
YOmonlik-chi, xotiradan chiqmas umrbod .

Ne chora bor? SHunday ekan inson hislati.
Men saltanat noyibiman, valiahdiman.
Buni kecha u qaytadan tasdiq ayladi . .
Ammo qachon? Necha –necha yillardan keyin
Men bu baxtga erishurman? Tangri biladi
Balki besh yil, balki o'n yil balki o'ttiz.
Axir, uning o'z otasi shohruh Mirzo ha
SHohruh Mirzo padarlari Amir Temurxon
Yetmishlardan oshdilar umr manzilin
Bordiyu bu ulardan ham ko'proq yashasa
Kerak, axir, shoxlik tojin boshga qo'yaman?

Bu monolog orqali Abdullatifning ichki kechinmalari namoyon bo'ladi. Uning fikri hayolini faqat toju taxt o'g'irlagan. Abdulatifning bu so'zlari orqali, uning naqadar tuban, dunyoqarashi tor va ichi qora shaxs ekani nomoyon bo'ladi. Uning o'z otasiga bo'lgan qora niyati, uni ko'rolmasligi, otasining nafaqat o'z diyorida, balki Rim, Xind, Misr, Tabriz kabi boshqa yurtlarda ham muxtaram zot ekanligini o'ylab yanada siqiladi. Lekin, u o'g'ilning o'z otasiga osiy bo'lishi og'ir gunoh ekanligini biladi. Ammo, u hukmdorlik vasvasasidan qutila olmaydi. Bundan esa, uning qalbida mehr-muhabbat degan tuyg'uni ko'rish qiyin. Inson o'z pushti kamariga yomonlik ravo ko'rsa, boshqa odamga nisbatan umuman, yaxshilik kutish mumkin emas. U taxtni egallash uchun, turli yo'llarni o'yllab ko'radi. Agar bolalari singari otasi ham ko'proq yashasa qariganida xukmdor bo'lamanmi deb qiynaladi Abulatif shohlikni faqat xursandchilik ,kayfu safo deb o'ylaydi. Lekin, uning hayoliga xalqni boshqarish degan fikr umuman kelmaydi.

Monologga Abdulatifning ruhiy xolatini bilishi, uni idrok qilish qiyin emas. Uning ichki olami nihoyatda tuban, joxil va qora ekanini aytgan so'zlari orqali namoyon bo'ladi.

O'quvchilar Abdulatifning shu kabi yomon xislatlaridan nafratlanib, tegishli xulosa chiqardilar. Insonning ruhiyati doimo go'zal bo'lishi, shundagina u baxtga erisha olishini o'qituvchi uqtirib otishi lozim .

O'qituvchi o'quvchilarga turli xil savollar bilan murojat qilishi lozim. "Abdulatifning o'rnida bo'lganida, ilm yo'lini tanlarmidingiz yoki xukumdorliknimi? " – deb, ularni fikrlashini, ruhiyatini shakllantirib borish kerak.

Ulug'bek dunyoqarashida esa Abdulatifning butunlay teskarisini ko'ramiz. Uning monologida shunday so'zlar bor:

Tomirimda garchi yurar Temurning qoni
Ammo menda Temurning shaddotligi yo'q
Turkistonda garchi menga teng keladigan
Mergan yo'g'u, ammo urish tabimga yoqmas

O'quvchilar qahramonlar bir- biriga qiyoslab, o'quvchilar ularning farqini jihatlarini topadilar. Ulug'bekning kamtarligi , uning jang uslublarini mukammal bilsa-da, lekin jang qilishni xohlamasligi va majbur hukimdor bo'lib yurishi o'quvchilarda yaxshi taassurot qoldiradi.

Qahramonlarning ichki olamini o'rganishga dialog, monolog, polelogdan tashqari yana, qahramonlarning boshqa qahramonlarga bergan tariflari orqali ham o'quvchilarga yetkazish mumkin.

O'quvchilarni ko'proq dramatik asarga qiziqtirishi va qahramonlarning dunyoqarashlarini ochob berishga teatrlashtirilgan dars yaxshi samara beradi.

Shuni hisobga olib darsni sahna ko'rinishi orqali tashkil etishni maqsad qilib oldim buning uchun men, asardagi uchinchi ya'ni SHayhulislom, Sakkokiy , Bek Arslon, Abdu razzoq Samarqandiy, Farmonshoh, Qo'rchilarning suhbatlarini tanlab oldim.

Bunday darsni tashkil qilish uchun, sinfdagi aktiv va nutqi ravon o'quvchilarga qahramonlar nutqlari bo'lib beriladi. O'quvchilar keyingi darsgacha matnni yodlab qaysi qahramon rolini ijro qilmoqchi bo'lsa uning kiyimlarini

topib, tashqi ko'rinishlarini ham asar qahramolaridek qilib tayyorlanadilar albatta, o'qituvchining maslaxati bilan o'qituvchi ularga rollarni yaxshi ijro qilgan o'quvchilar rag'batlantirishini uqtiradi.

SHayxulislom (birinchi o'quvchi)

Ahson sizga, baytingiz xo'b, shoir Sakkokiy
Faxriyasi alalxusus manzur tushibdur
Dubaro bir qaytarilsa !

Sakkokiy (ikkinchi o'quvchi)

Falakqadro mening xud yo'q hunarda fazlim
Va lekin bir duochiman , mini tangri uchun asro !
Riyoziy, hashti hikmatu , rasad, aksiru Aqlidus.
Badiyyu sanoyini uningdek bilmadi onlar,
Falak yillar kerak sayr etsayu keltirsa ilkiga
Meningdek shoir turku seningdek shohi dononi!

Bek Arslon (uchinchi o'quvchi)

shohi dono deganlari ?

Sakokiy (ikkinchi o'quvchi)

Mirzo Ulug'bek ! Bek Arslon (uchinchi o'quvchi
shoir turk deganlari?

Sakkokiy (ikkinchi o'quvchi)

(o'zini ko'rsatib

Bandam ojiz

Abdurazoq Samarqandiy (to'rtinchi o'quvchi)

Asrlarning zo'r sarguzashtin tekshirib ko'rdim,
Ko'p o'pgandim sultonlarning amallarini,
Ammo xazrat Ulug'bekday oliy bir sulton

Iskandardan keyin taxtga o'tirgan emas
Fanning shoh, fazilatning podshoxi erur
Qomatiga xo'b kelishgan sultonlik to'ni
Adolatli mamlakatga yog'dirar yog'du
Xaqiqatni mavhumlarin ko'b kashf etdi u
Bu to'g'rida mashhur, mo'ruf o'z asarimda
“Matlaus –sa'dayn “ degan muxtasarimda
Aynan shunday bitib qo'ydim. Bu bari to'g'ri .
Sakkokiyning “ shohi-dono” baxosi ko'b rost
Ammo, ammo, o'zin maqtab aytganlariga
Nima deyman? Aytgan bo'lsa, demak to'g'rida!

O'quvchilar ro'llarini xarakterlar bilan ijro etadilar. SHundan so'ng, o'qituvchi o'quvchilardan sahna ko'rinishida kim haqida gap bo'lganini so'raydi. O'quvchilar, Sakkokiy va Samarqandiyning Ulug'bek fikrlari o'rinli ekanini tasdiqlaydilar. Sakkokiyning bildirgan ta'rifi, ya'ni Ulug'bekning buyuk ilm egasi ekanini ta'kidlab , Arastolisu, Aflotini , Petlemyusu Jaloinus kabi olimlar Ulug'bekday ilm sirlarini egallay olmaganini aytadi. YAna, Sakkokiyning Ulug'bekni shohi dono deb tariflashidan, o'quvchilar Ulug'bekning insonlar qalbida shoh sifatida ham muhabbat uyg'ota olganini va uning dilkash shaxs bo'lib yetilganini e'tirof etishadi.

YAna bir o'quvchi Abdurazzoq Samarqandiyning Mirzo Ulug'bek haqida bildirgan ta'rifini keltiradi. Uning ta'rificha. Ulug'bek olim ham dono xukmdor, Iskandardan so'ng, boshqa bunday hukmdor bo'lmaganini aytadi.

Boshqa o'quvchi esa, uning adolat bilan davlatni boshqarganini , haqiqatni Targ'ib qilgani uchun ham Samarqandiy o'zining “Matlaus –sag'dayn” asarida Ulug'bekning shu jihatlarini yoritganini aytadi .

Boshqa o'quvchi ham, uning adolat bilan davlatni boshqarganini va shu kabilar haqida fikr yuritishdi.

O'quvchilar fikrlarini bildirib bo'lgach, o'qituvchi ularning fikriga xulosa yasaydi.

Dramatik asarlarni o'rganishda sahna ko'rinishidan foydalanishning ijobiy tomoni shundaki, o'quvchilar ko'z o'ngida qahramonlar namoyon bo'ladi. Ular qahramonlarni ko'radilar, nutqlarini jonli eshitadilar. Asarni tahlil qilish va idrok qilish oson va qulay bo'ladi. O'quvchilar dars mobaynida zerikishmaydi va charchashmaydi, fanga bo'lgan mehri oshadi.

Dars oxirida o'quvchi albatta qahramonlar xarakteri, ruhiyati va yozuvchining maqsadi haqida to'xtalib, yakunlovchi fikrlar bildiradi.

SHayxzoda o'zbek xalqi tarixida salmoqli ro'l o'ynagan, Movarounnahrda ulkan davlat podshosi SHohruhning o'g'li, Jahongir Amir Temurning nabirasi, ulug' astronom va riyozatchi olim Ulug'bek (1394-1949) obrazini aniq va haqqoniy gavdalantirib berdi. Bu ulkan tarixiy shaxs va ajoyib inson o'z davrining kuchli ijtimoiy qarama –qarshiliklar markazida turdi. Uning haqqoniylikka qaratilgan ilmiy kashfiyotlari, birlashgan yagona davlatni saqlab qolishga urinishlari bir tomondan diniy mutaassib guruhlar nafsoniyatiga, ikkinchidan feodal davlatni saqlab qolishga urinishlari bir tomondan diniy mutaassib guruhlar nafsoniyatiga, ikkinchidan feodal davlatni “xontalash” qilib olish ishtiyoqida shay bo'lib turgan taxtparast merosxo'rlar manfaatiga tamoyiliga zid va qarama – qarshi edi. Tarixdan ma'lumki Ulug'bek shu tarixiy haqiqatlardan kelib chiqib, ijtimoiy kurashning fojiali qurboni bo'ldi. Muallif Ulug'bek obrazini yaratishda mavjud tarixiy dalillar va haqiqatlarga ularning hayotiy va real mazmuniga amal qiladi. U san'atkor sifatida tarixiy ma'lumotlarga suyanib, fantaziyani ishga soladi. Ifodalanayotgan davr hayotini keng ko'lamda haqqoniy ochib berishga harakat qiladi, manfaat jihatdan bir - biriga juda yaqin hammoslik bo'lgan katta ijtimoiy vakillarini Ulug'bekga qarshi qo'yadi. Ikki o'rtada paydo bo'lgan kuchli kurash va manfaatlar to'qnashuvlarida Ulug'bek insonparvar, ilm bilan adolatparvar hukmdorlikni birga qo'shib olib borishga intiluvchi, erkin va chuqur fikrlovchi, izlanuvchi olim diniy xurofotlardan ustun turuvchi kuchli iroda

egasi, mardonavor, ayni vaqtda kamtarin odam sifatida namoyon bo'ladi. Uning bunday insoniy fazilatlari aniq hayotiy epizodlarda, chuqur ruhiy kechinmalarida, bir alam ruhiy iztiroblar qa'rida xarorat bilan ochib beriladi.

Muallif reallikka, aniqlikka intiladi, qahramonlar qalbiga, ruhiyatiga e'tiborni qaratadi. Iste'dod bilan yaratilgan bunday o'rinlardan biri Ulug'bekning Temur qabriga kelish epizodidir. Mazkur epizod shartliylar ramziy va romantik ruhi jihatidan "Xamlet"dagi arvoh epizodiga o'xshab ketsa – da mazmunan o'ziga xosdir. Muallif bu yerda Ulug'bekning ma'naviy bo'lishini, ruhiy fojiasini haqiqatni to'la ochishga yo'l topadi. Ulug'bek o'g'li Abdulatifning taxtni topshirish hususidagi talabiga javob berish oldidan chuqur ruxiy fojia ummoniga g'arq bo'ladi, tunda bobosining qabri yoniga boradi, unga nobop o'g'li Abdulatifning kirdikorlarini zamonasining ziddiyatlaridan boshiga tushayotgan zarbalarni, o'zaro zid bo'lgan podshohlik va olim sifatida qilgan ishlarining oqibati alamli bo'layotganini to'kib solib, maslahat so'raydi.

Tragidiyani o'qish jarayonida, Ulug'bekning ichki dunyosida, qalbida bo'layotgan qarama - qarshiliklar va azob iztiroblar tug'yonini chuqur xis qilish qiyin emas. O'quvchilar, hayotiy zamin ta'sirida qahramon chekayotgan ruhiy tragik kolliziyalardan nixoyatda ta'sirlanadi, qalbi larzaga keladi, davrga, uning nobop va realzion namoyondalariga nisbatan nafrat, g'azab tuyg'usi jo'shadi, bosh qahramonga xayrixoh bo'ladi, qattiq achinadi.

Ulug'bek o'z shaxsida ikki zid nuqtani dinga suyanuvchi hukmdorlikni - podshohlikni ayni chog'da ilm – ma'rifat tarafdori siymosini jam etgan. Ilmga bo'lgan muhabbati bundan voz kechishga yo'l qo'ymaydi. shuningdek, uning o'z davri farzandi ekanini, ayniqsa Temuriylarga mansub hukmdorlik sha'ni podshohlikdan voz kechishga yo'l qo'ymaydi. Ulug'bek o'rta sharoitida mumkin bo'lmagan ishni amalga oshirmoqchi, ya'ni hukmdorlikni ilm - fanga o'z dushmaniga xizmat qildirmoqchi edi. Ikki o't orasida qolgan Ulug'bek shahsiyatiga boshqa kuch ham azob, beradi. Bu kuch uning o'g'li

Abdulatifning qora kuchlar tomonidan turushidir. Jigargo'shalik – yaqin tug'ishkanlik negizidan o'sib chiqqan dushmanlik yengib bo'lmas azob qiynog'iga soladi.

Farzandda otalik mehri ustiga o'g'lining pushti - panohiga qarshi qo'l-qurol ko'tarib chiqishi Ulug'bek qalbini kemiruvchi uning fojiasini amalga oshiruvchi real asosga aylanadi.

Muallif realism negizida tarixiy voqra va shaxslarning to'g'ri yoritadi O'tmishining jaholatga rostlik tomonlarini qoralaydi, romantikruh bilansug'orishga alohida e'tibor beradi. Muallif uslubidagi bunday xususiyatlar Ulug'bekning kelajakka umid bilan qarashini uning ichki dunyosini ko'tarishga va shu ichki ruhiy dunyosini ko'tarinki ruhda ochishda yaxshi naf beradi.

Asarning oq she'rdi yozilishini, undagi jo'shqinlik va zavqbaxshlik, kelajakka murojaat etish tragediyaga umid – ishonchga to'la ruh bag'ishlaydi.

Ulug'bek qora guruh jaholatparastlar qo'lida Abdulatif va xo'ja Ahrorlar rahnamoligida fojiali halok bo'ladi. Muallif bu ulug' inson zotining qotillari ustidan qat'iy hukum yurutadi, yozuvlarda hadsiz nafrat qo'zg'aydi kelajak avlod uchun fan, madaniyat sohasida unitilmas xizmat qilgan Ulug'bekka, uning insonparvarligiga nisbatan, xulqsiz dahosining ulug' ifodachisi sifatida, teran mehr- muhabbat va so'nmas zarur iftihor hislarini uyg'otadi. O'z fazilatlari bilan asar o'quvchilarga ulkan estetik zavq beradi.

“Mirzo Ulug'bek” xalq vatan tarixida salmoqli ro'l o'ynagan shaxslar hizmati va insonparvarlikni xaqqoni, badiiy talqin etishiga bizdagi tragediya janri rivojlanib borayotganini ko'rsatishda tahsinga sazovor san'at durdonasidir.

Bu asar, o'quvchilarga ta'lim tarbiya berishda katta ahamiyatga Molikdir. Ularning ruhiyatini faqat yaxshi fazilatlar bilan shakllantirishda eng o'tkir qurol vazifasini bajaradi. YOzma ishlarda qahramon ruhiyatini ko'rsatishga oid ko'nikma va malakalarini shakllantirish, o'qilgan asar yuzasidan har bir o'quvchining fikrini bilish, ularda qoldirgan taassurotini

aniqlash maqsadida yozma ishlarda foydalanish muhim o'rin tutadi. SHu maqsadni ko'zlab davlat ta'lim standarti va dasturlarda yozma ishlarga alohida e'tibor berilgan .

Akademik litseylarda insho ham muhim o'rin tutadi. Atroflicha o'rganilgan puxta tahlil etilgan har qanday asar yuzasidan katta yoki kichik insho olish yaxshi samara beradi.

Unutmaslik kerakki, o'quvchilarning yozuv savodxonligini oshirish, o'y fikrlarini, his-tuyg'ularini yozma ravishda ifodalashga o'rgatish maqsadida yillik rejada ko'zda tutilgan ta'limiy va nazorat insholarni, shuningdek, uyda bajariladigan taqriz - insho, maqola - insho, munosabat - insho singari yozma ish turlarini bajarish muhim ahamiyatga ega?

Bundan tashqari o'qituvchi faqat yillikda berilgan insho mavzularidan emas, balki o'quvchilarni qiziqтира oladigan mavzularda ham insho yozdirishi, ularni fikrlash qobiliyatini kengaytiradi. SHu o'rinda adabiyot metodisti Q. YO'ldoshev fikrlarini keltirishi mumkin:

“Adabiyot o'qituvchisi badiiy asarlarni tahlil qilish jarayonida ham o'quvchilarni baholashda ham, ulardan yozma ishlar olish mobaynida ta'kidlangan ta'limning demokratikligi tamoyiliga og'ishmay amal qilsa maqsadga erishish mumkin”.

Akademik litseylarda o'qigan asarlar yuzasidan, qahramonlarning ruhiyatini ko'rsatishga oid malakalarni inshodan tashqari referat: mustaqil ishlar, qahramonlarga tavsif yozdirishi orqali ham shakllantirish mumkin. Buning uchun o'qituvchi shunday mavzu topishi kerakki ,o'sha mavzu o'quvchini o'ylantiradigan, qahramonlarning ichki olamini o'zi mustaqil fikr bildirib yoritib bera oladigan, ijobiy va salbiy qahramonlarni bir- biriga solishtirib, fikr yurita oladigan bo'lishi kerak.

Masalan: “MirzoUlug'bek” tragidediyasini darsda o'tib bo'lmaganidan so'ng o'qituvchi o'quvchilarga turli xil mavzularda referatlar berishi mumkin.

Mavzular quyidagicha bo'lishi mumkin :

“Ulug'bekni fojiaga olib kelgan sabablar”, “Abdulatif ma'nan qashshoq shaxs “, “Mirzo Ulug'bek”, tragediyasidan, men olgan ozuqa , “Mirzo Ulug'bek tragediyasida ruhan barkamol obrazlar” kabi.

Bundan tashqari asardagi har bir qahramonga yozma tarzda tavsif yozdirish orqali, qahramonlarning ularda qoldirgan taassurotini aniqlash mumkin. SHu asosida o'quvchilarning ham dunyoqarashi shakllanadi . Har bir qahramondagi yaxshi yoki yomon fazilatlarni yozar ekan , o'ziga tegishli xulosasini chiqarib oladi. Qahramonlardan mardlik, halollik , to'g'rilik , ezgulik kabi xislatlarni maqtab yozar ekan, o'zi ham shu qahramonga o'xshagisi keladi. Aksincha qahramondagi yomon , zolim, tuban, johil, qo'rqqoq va uyatsiz, vijdotsiz xislatlarni yozar ekan, undan albatta nafratlanadi. O'zida ham shu kabi nuqsonning birortasi bo'lsa, u darhol o'zini tuzatib oladi. YOmonlik, ichi qoralik , hech qachon yaxshilikka olib kelmasligini anglab yetadi.

O'qituvchi yozma ishlarining turli xilidan foydalanishi mumkin. Lekin maqsad bitta. YOzma ishlar orqali o'quvchilarning asarni qanday o'rganganligini va asar ularning qalbiga qay tarzda yetib borganligini aniqlash, o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish va fikrlarini yozma bayon eta olish qobiliyatini shakllantirishi , shular asosida esa o'quvchilarning dunyoqarashi , ongini o'stirishi ko'zda tutiladi.

Buning uchun esa adabiyot o'qituvchisi izlanuvchan, yaratuvchan va o'zi ham ruhan yetuk bo'lishi kerak. O'quvchilar qalbining nozik nuqtasiga yetib boruvchi yozma ishi mavzularini topib, ularning badiiy ijodga qiziqishini uyg'otish ham, adabiyot o'qituvchisining nozik bir mahoratidir.

Xulosa.

Mustaqillik bizga har tomonlama o'zgarishga, jumladan, ta'lim sohasida ham ijobiy yutuqlarga erishishga olib keldi.

Ushbu bituruv malakaviy ishi "Akademik litseylarda qahramon ruhiyatini o'rganish" deb nomlangan bo'lib, har bir o'quvchiga mavzuda ilgari surilgan g'oyalarni oson yo'llar bilan tushuntirish, shu bilan birga hayot ostonasiga to'g'ri yo'naltira olish ko'zda tutilgan.

Badiiy asarni shunday tushuntirish kerakki, o'quvchi asarni tushunibgina qolmay, hayotda ham asarda qo'yilgan xatolarga yo'l qo'ymas. O'quvchi darsdan shunday ozuqa olishi kerakki, hayot mobaynida, jamiyatda o'z o'rnini egallay olishi, ham ma'naviy, ham moddiy jihatdan boy va yetuk bo'lishi kerak. SHunda u jamiyatda o'z o'rnini egallay olishi va ko'zlagan maqsadiga erishishi mumkin.

Asardagi qahramonlar ruhiyatini o'rganishdan maqsad shunda. Mustaqillikdan oldin adabiyotimizda bunday mavzu va g'oyalar yo'q edi. Asarlarni faqat bir tomonlama o'rganish va o'rgatish mumkih edi. Ming shukrlar bo'lsinki, istiqloldan so'ng adabiyotda ham demokratik o'qitish usuli paydo bo'ldi. Bugungi kun adabiyotida asarlarni o'qitishning bosh maqsadi, shaxs ruhiyatini shakllantirish va uni jamiyatga kerakli inson qilib tarbiyalash ko'zda tutilgan. Kelajakda davlatni boshqaradigan insonning o'z fikri bo'lishi kerak. U fikrini hech ikkilanmasdan jamiyatga bildirsa olish, boshqalarning fikri bilan ish yuritmasligi, ruhan barkamol shaxs bo'lishi kerak.

SHu maqsadlarni ko'zlagan holda, adabiyot o'qitishda, asar qahramonlarining ruhiyati o'quvchiga o'rgatiladigan bo'ldi. Davlat ta'lim standartida ham, o'quv dasturlarida ham bu mavzuga alohida e'tibor berildi.

Prezidentimizning yosh avlodni tarbiyalash borasida olib borayotgan ishlari alohida taqsinga loyiqdir. Ta'lim va tarbiyani to'g'ri yo'lga qo'yishni ta'kidlab, shunday degan edi:

Men Abdulla Avloniyning: “Tarbiya biz uchun yo xayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir”, degan – fikrini ko’p mushohada qilaman.

Buyuk mutafakkir, ma’rifatparvarning bu so’zlari asrimiz boshlarida ishlatishimiz uchun qanchalar muhim va dolzarb bo’lgan bo’lsa, xozirgi kunda biz uchun ham shunchalik, balki undan ham muhim va dolzarbdir.

CHunki talim – tarbiya – ong maxsuli, lekin ayni vaqtda ong darajasi va uning rivojini ham belgilaydigan omildir. Binobarin, ta’lim tarbiya tizimini o’zgartirib olmasdan turib ongni o’zgartirib bo’lmaydi. Ongni, mutafakkirni o’zgartirmasdan turib esa biz ko’zlagan oliy maqsad – ozod va obod jamiyatni barpo etib bo’lmaydi”⁴

SHulardan kelib chiqib, adabiyot o’qituvchisining zimmasiga yana bir mas’uliyat yuklatildi. “Adabiyot o’qituvchisining o’zi go’zal, o’zidan ham s’zi go’zal bo’lishi kerak”, - degan fikrga yana bir qo’shimcha kiritmoqchiman. Bugungi kun o’qituvchisi ruhshunos ham bo’lishi kerak. CHunki, uning zimmasiga kelajakda jamiyatga kerakli, dunyoqarashini shakllantirshdek mas’uliyat va ishonch yuklatilgan.

Men, barcha adabiyot o’qituvchilariga qarata, shu ishonchni his qilaylik va amal qilaylik, barkamol avlodni tarbiyalash bizning zimmamizda ekan, shuni oqlaylik demoqchiman!

⁴ I. Karimov. “Yuksak ma’naviyat – engilmas kuch”

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. I.A. Karimov. «YUksak ma'naviyat-engilmas kuch». Toshkent. «Ma'naviyat» 2008 y.
2. O'rta maxsus kasb hunar ta'limini umumta'lim fanlari davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlari: R.X. Jo'rayev, J.H Husanov, H.F Masudov va boshq. Sharq. 2001. 328 – bet
- 3.To'xliyev. B Akademik litsey va kasb hunar kollejlari uchun adabiyot darsligi. T. O'qituvchi, 2007. b – 39.
- 4.Aliyev S. O'zbek komediyalari. T. O'zbekiston. 1997.107- b.
- 5.Jalilov. B. SHaripova M. Maktabda dramatik asarlarni o'rganish, - T.: O'qituvchi. 1992 56 – b.
6. Imomov. B, Jo'rayev Q, Hakimova.X. O'zbek dramaturgiyasi tarixi – T.: O'qituvchi 1995 235 b
7. YO'doshev. Q, o'qituvchi kitobi (7 – sinf o'zbek adabiyoti darslik – majmuasi uchun) T.: O'qituvchi 1997 227 b.
8. YO'ldashev J.G' Ta'lim yangilanishi yo'lida T.: O'qituvchi, 2000 202 b
9. Kattabekov. A, Raxmonov B. O'zbek adabiyoti 8 – sinf uchun darslik majmua T.: O'qituvchi 1997 272 b.
11. Lopasov J. Mumtoz adabiy asarlar o'quv lug'ati (o'rta maktablar uchun) T.: O'qituvchi 1994 – 272 b.
12. Maqsud SHayxzoda. Mirzo Ulug'bek: - T.: O'qituvchi 1994 224 b.
13. Mamatov U. O'zbek adabiyoti (majmua) T. O'qituvchi. 1995. 414-b
- 14.Musurmonova O. Adabiyot va ahloqiy tarbiya. (metodik qo'llanma) T. O'qituvchi. 1988. 96-b
- 15.Mirzaeva M, Ahmedova X.A. Nutq o'stirish metodikasi. T. O'qituvchi. 1978. 225-b
- 16.Matjonov. S. Maktabda adabiyotdan mustaqil ishlar (o'qituvchilar uchun metodik qo'llanma) T. O'qituvchi. 1996. 202-b

17. Nurmuhamedov. M.K. tahrir ostida. Adabiyot nazariyasi. T. Fan. 1979. 443-b
18. Nishonova Z. Ta'lim samaradorligini oshirish vositalari (adabiyot o'qituvchilari uchun metodik qo'llanma) T. 1991. 65-b
19. To'xiev. B. Adabiyot. Akademik lisey va kasb-hunar kollejlari uchun. T. O'qituvchi. 2002. 288-b
20. Umurov X. Adabiyot nazariyasi. (darslik) SHarq. T. 2002. 256-b
21. Umurov X. Adabiyot qoidalar. Akademik liseylar uchun o'quv qo'llanma (qayta ishlangan va to'ldirilgan 2-nashri) T. O'qituvchi. 2003 y. 240-b
22. Qurbonov D. Ruhiy dunyo tahlili. Kecha va kunduz romanida xarakterlar psixologizmi (mas'ul muharir U. Normatov) T. Xazina. 1995. 114-b.